

## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA KIMYO FANINI O'QITISH JARAYONIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLARNING QO'LLANILISHI

**D.I. Eshankulova**

Texnika fanlari falsafa doktori (PhD)

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida kimyo fanini o'qitish va dars jarayonlarida duch kelinayotgan muammolar hamda ularning yechimlari keltirib o'tilgan. Bo'sh va iqtidorli o'quvchilar uchun kimyo fani darslarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan zamonaviy interfaol metodlarning tahlili ham ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** "To'g'ri top" metodi, "Eslab qoling" metodi, "Taxminiy fikrlash" metodi, kimyoviy hodisa, fizik hodisa.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье приведены проблемы, с которыми сталкиваются в процессе преподавания и уроков химии в общеобразовательных школах, а также их решения. Также показан анализ современных интерактивных методов, которые можно применять на уроках химии для свободных и одаренных учащихся.

**Ключевые слова:** метод "найди правильный", метод "запомни", метод "предположительного мышления", химическое явление, физическое явление.

### ABSRTACT

This article presents the problems encountered in the process of teaching and teaching chemistry in secondary schools, as well as their solutions. The analysis of modern interactive methods that can be used in chemistry lessons for free and gifted students is also shown.

**Keywords:** "find the right one" method, "remember" method, "presumptive thinking" method, chemical phenomenon, physical phenomenon.

Kimyo fani murakkab fanlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun o'quvchilarga ushbu fanni o'zlashtirish bir muncha qiyinchilik tug'dirishi mumkin.

Umumta'lim maktablarida kimyo fanini o'rgatishda asosan tahsil olayotganlarning o'zlashtirish darajalarini inobatga olish lozim. Chunki umumta'lim maktablarida har bir sinf kesimida bo'sh va iqtidorli o'quvchilar bo'ladi. Fanni o'rgatish jarayonida o'quvchilarga individual topshiriqlar asosida yondashilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Zamonaviy interfaol metodlar esa sinfdagi barcha o'quvchilarni qamrab olishga xizmat qiladi.

Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun soddaroq va tushunarli bo'lgan metodlardan foydalanilsa, o'quvchining kimyo fanini o'rganishi va ushbu fanga bo'lgan qiziqishi ancha ortishi mumkin.

Masalan: 7-sinf kimyo fanining "Fizik va kimyoviy hodisalar" mavzusida sinfdagi barcha o'quvchilarni 3 guruhga bo'lib ularga alohida topshiriqlar berish orqali hamda "To'g'ri top" metodini qo'llash orqali yangi mavzuni ta'lim oluvchilarga soddaroq qilib yetkazib berish mumkin.

**"To'g'ri top"** metodi

**1-guruh**

1. Hodisa deganda nimani tushunasiz?
2. Kimyoviy hodisalarga misollar keltiring.

**2-guruh**

1. Fizik hodisalarga misollar keltiring.
2. Kimyoviy hodisa jarayonida moddalarning qanday xossalari o'zgaradi?

**3-guruh** (Bu guruhga savollarni 1-2 guruh o'quvchilari berishadi)

1. Quyida keltirilgan hodisalardan fizik hodisaga mansublarini to'g'ri toping:  
Shamning erishi, qog'ozning yonishi, qorning erishi, mis simning cho'zilishi, bertole tuzining parchalanishi, shishaning maydalanishi.

Aynan shu sinfdagi ta'lim oladigan iqtidorli o'quvchilarga mavzu yuzasidan qo'shimcha didaktik materiallar asosida topshiriqlar berish orqali ta'limning sifat ko'rsatkichini yanada ortirish mumkin.

«Eslab qoling» metodi yordamida o'quvchilarning 10 tasi doskaning yoniga taklif etiladi. Ushbu o'quvchilar kundalik turmush hayotimizda uchraydigan avval kimyoviy keyin esa fizik hodisalarni aytib o'tishlari kerak bo'ladi.

1-o'quvchi 1 dona kimyoviy yoki fizik hodisani, 2-o'quvchi 1-raqamli o'quvchi aytib o'tgan hodisa bilan birga yana bir yangi hodisani aytib o'tishi lozim bo'ladi. Shu tariqa ushbu metod so'ngida 10-o'quvchi 10 ta kimyoviy va fizik hodisalarni nomlarini aytib o'tadi. Bu metod yordamida o'quvchilarning dunyoqarashi va eslab qolish qobiliyatini shakllantirishimiz mumkin.

**"Taxminiy fikrlash"** metodi yordamida o'quvchilar kundalik turmush hayotimizda ko'p uchraydigan hodisalarni tahlil qilib to'g'ri javobni topishni o'rganadilar.

1-jadval

Hodisalar	Sizning taxminingiz	
	eriydi	erimaydi
1. Suv+yogʻ	+	-
2. Suv+boʻr		
3. Suv+shakar		
4. Suv+tuz		
5. Suv+qahva		
6. Suv+soda		

Kimyo faniga oʻquvchilarni qiziqtirish ularning bilim, koʻnikma va malakalarini oshirish bizning eng muhim maqsadlarimizdan biri hisoblanadi. Oʻquvchi dars jarayonida olgan bilimlarini amaliyotda qoʻllay olishi esa bizning yutuqlarimizdan biri desak mubolagʻa boʻlmaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI: (REFERENCES)**

1. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Toshkent. 2022
2. «Taʼlimni tashkil etishda zamonaviy interfaol metodlar» metodik qoʻllanma. Toshkent-2016.
3. Методы интерактивного обучения. Методические указания. Л.Ю. Сафанова. Великие Луки. 2015
4. Internet saytlari: ziyonet.uz, gov.uz.